

**«O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantiga sertifikatini berish»
Davlat xizmati reglamenti**

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantiga sertifikatini berish

1.2. Xizmat natijasi

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantining Sertifikati.

1.3. Xizmatni ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish manzili

O'zbekiston Respublikasi Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Davavianazorat).

Blankalarni Sertifikatlash, litseziyalash va parvozlarni ta'minoti bajarilishini nazorat qilish bo'limidan (SLPTBNB), yoki Davavianazorat www.uzcaa.uz saytining «Blankalar/Formalar» qismidan olish mumkin.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi 73b uy.

1.4. Huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksi, 44-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish choralari haqida, «Tadbirkorlik faoliyati sohasida yo'l qo'yilgan proseduralar (rasmiy marosimlar) haqida»gi 2013-yil 15.08 dagi 255-sonli Qaror.

3. «Tadbirkorlik sub'ektlarining fuqaro aviatsiyasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tishi tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 martdagi 58-sonli qarori

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari.

1.6. Ijro muddati

Ariza olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida.

1.7. Arizani qabul qilinganligini tasdiqlash muddati

Ariza olingan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kun ichida

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish

2.1. Keng ko'lamda ma'lumot taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantini sertifikatlash tog'risidagi ma'lumotlar Davavianazorat www.uzcaa.uz saytidan amalga oshiriladi

2.2. So'rovga asosan beriladigan ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatantini sertifikatlash tartibi tog'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish:

- og'zaki ravishda, ish kunlari soat 9.00 dan 18.00 gacha 120-00-61 yoki 120-00-71 sonli telefon raqamlari orqali;
- yozma ravishdagi hujjatlar so'rovnomalar asosida beriladi.

Yozma ravishdagi so'rovnomalarni qabul qilish:

- Davavianazorat devonxonasi orqali, ish kunlari soat 9.00 dan 18.00 gacha;
- kechay kunduz 254-14-82 yoki 255-53-37 sonli Faks raqamlari orqali;
- kechay kunduz caa@uzcaa.uz yoki flight@uzcaa.uz elektron pochta orqali.

2.3 Xizmat ko'rsatish manzili tog'risida ma'lumotlarni taqdim etish

Davavianazorat manzili:
100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi 73b uy.
Mo'ljal – Mirobod bozori ro'parasida.

2.4. Ishlatiladigan hujjatlar blankalari (shakllari)

Ariza va sertifikat shakllari "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom"da belgilangan, Nizomning 2 va 5 ilovalari.

Ariza blankasini «Davavianazorat» inspeksiyasining SLPTBNBdan yoki Davavianazorat www.uzcaa.uz saytining «Blankalar/Formalar» qismidan, shuningdek mazkur reglamentning 2 ilovasidan olish mumkin.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

«Davavianazorat» inspeksiyasining ish vaqti: soat 9.00 dan 18.00 gacha, shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari.

3.2. Kutish shartlari

Kutish shartlari mavjud emas.

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar

Sertifikatsiya o'tkazish uchun Ariza.

“O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom”ning 6-ilovasida ko'rsatilgan asoslovchi hujjatlar ro'yxati ilova qilinadi.

4.2. Arizani ko'rib chiqish uchun to'lov

Arizani ko'rib chiqish bepul.

4.3. Davlat xizmatlari ko'rsatish bosqichlari

“O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom”da quyidagi bosqichlar belgilangan:

- a) Nizomning 5-ilovasiga asosan rasmiylashtirilgan Arizani, Nizomning 6-ilovasiga asosan asoslovchi xujjatlar to'plami bilan qabul qilish va ro'yxatga olish;
- b) Ariza va asosli hujjatlarni tekshirish, va aniqlangan kamchiliklar to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda bildirish;
- v) belgilangan talablarga muvofiq tekshiruv o'tkazish, aniqlangan nomuvofiqliklarni ko'rsatish bilan tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlarni rasmiylashtirish, ariza beruvchiga hisobotlarni topshirish;
- g) tekshirish vaqtida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish haqidagi hujjatlarni ariza beruvchidan olish;
- d) fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish (rad etish)

4.4. Davlat xizmati ko'rsatishning ichki idoraviy jarayonlari

«Davavianazorat» inspeksiyasi devonxonasi tomonidan arizani qabul qilib olish;
Devonxona tomonidan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasi boshlig'iga ko'rsatma yozish uchun topshirish;
Devonxona tomonidan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasining SLPTBNBga topshirish;
«Davavianazorat» inspeksiyasining SLPTBNBga arizani “O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom”talablariga asosan ko'rib chiqish;
Ariza beruvchiga Sertifikat berish rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda xabar berish yoki Sertifikat berish

4.5. Xizmat ko'rsatilishini rad etish asoslari


Ariza beruvchiga “O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom”ning 4-ilovasi talablari bajarilmaganda fuqaro aviatsiyasi ekspluatanti sertifikatini berish rad etilishi mumkin.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmatdan shikoyat qilish

Ariza beruvchi sertifikat berish rad etilishi to'g'risidagi qarori, shuningdek Davavianazorat mansabdor shaxsining xatti-xarakati (xarakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

Davlat xizmati ko'rsatish sxemasi



Reglamentga 2 – ilova

ARIZA

dan

(yuridik shaxsning to'liq nomi yoki jismoniy shaxsning F.I.O)

ekspluatant sertifikatini birinchi marta olish;	<input type="checkbox"/>
ekspluatant sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish;	<input type="checkbox"/>
ekspluatant sertifikatini qayta rasmiylashtirish	<input type="checkbox"/>
ekspluatant sertifikatini amal qilish muddatini uzaytirish	<input type="checkbox"/>
ekspluatant sertifikatining dublikatini berish	<input type="checkbox"/>
прекратить действие сертификата эксплуатанта	<input type="checkbox"/>
ekspluatant sertifikatini bekor qilish	<input type="checkbox"/>

So'rayman.

Ariza beruvchi haqida malumotlar:

Yuridik shaxslari uchun:

1. Tashkilotning to'liq nomi va uning tashkiliy-huquqiy turilishini ko'rsatgan holda:

2. Ekspluatantining joylashgan manzili
(pochtaning manzili) _____

3. Telefon/Faks raqami _____

Jismoniy shaxslari uchun:

1. Familiya, ismi, otasining ismi _____

2. Fuqaroning shaxsini belgilovchi hujjat _____

3. Turar joyining manzili _____

4. Telefon/Faks raqami _____

5. STIR _____

Пова:

(hujjatlarning nomi, ularning raqamlari, imzo qo'yilgan sana, varaqlar soni, taqdim qilish shakli)

20__ y. _____ Ariza beruvchi _____
(kun) (oy) (imzo, F.I.O.)